TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 19 - oktabr 496-10-139-Q/22 Qibray tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son; 02.04.2021-y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son) 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son) 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga asosan tumanda 2023-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 10 foizidan ortiqni tashkil etmagan miqdorida 349 kishini tashkil etadigan

shu jumladan:

— o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun 20.4 foiz (71 kishi);

— umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar hamda “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 58.4 foiz (204 kishi);

— O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 9.4 foiz (33 kishi);

— nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 3.8 foiz (13 kishi), shundan nogironligi bo‘lgan shaxslar 13 kishi;

— jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 5.2 foiz (18 kishi);

— Pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun 2.8 foiz (10 kishi) miqdorda ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

2. Qibray tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2023-yilga kvotalangan ish joylarining miqdori belgilangan korxona va tashkilot ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari tomonidan zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlarining barchasi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilganligi hamda kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma‘lumotlar va buyruq nusxalari tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 6-bandiga asosan korxona, tashkilot va muassasalarlarda

nogironligi bo‘lgan shaxslar band bo‘lgan barcha ish o‘rinlari va kasblar attestatsiyadan o‘tkazilishi kerakligi belgilanganligi qayd qilinsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

6. Ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga ma’muriy javobgarlik qo‘llanishi haqida ogohlantirilsin.

7. Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona tashkilotlarga,O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga asosan (ro‘yxat raqami 3163, 2019-yil 31-may) belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya ajratilishi taminlansin.

8. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (N.Rustamova) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Qibray tuman hokimining 2021-yil 20-sentyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g'risida”gi 160-10-136-Q/21 -son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Bekmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Qibray tumani hokimi **M.Mirkasimov**

Qibray tuman hokimining
2022 yil 19 oktabrdagi
496-10-139-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifasi

Ro'yxati

T/p	Xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilot nomi	band qilinadigan ish o'rni		shu jumladan							
		Jami ishlovchilar soni	Jami zaxiralangan ish o'rinlari	O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar hamda “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Pensiya oldi yoshi	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Atrofdagilar uchun xaf tug'dirmaydigan ijtimoiy axamyatli kasaliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar
1	Тошкент вилоят "Тошкент сув таъминоти" МЧЖ	2949	8	2	3	1	1	1			

2	Қибрай туман тиббиёт бирлашмаси	2074	24	10	11	2		1			
3	"4-SONLI MONTAJ BOSHQARMASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	1393	20	3	12	5					
4	"Тошкент иссиқлик электр станцияси" АЖ	1135	13	2	9	1		1			
5	Тошкент давлат аграр университети	974	19	3	11	2	1	2			
6	AKSIYADORLIK JAMIYATI SHAKLIDAGI "INTER ROHAT" QO`SHMA KORXONASI	649	12	3	7	2					
7	"NAVRUZ INTERNATIONAL CORP" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	605	19	3	14	2					
8	ARENA FASHION MCHJ SHAKLIDAGI TURKIYA CHET EL KORXONASI	131	8	2	4	2					
9	Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти	347	7	2	2	2	1				
10	QIBRAY TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	264	20	1	1		2	1	15		
11	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "IMKON PLYUS"	283	21	4	15	1	1				
12	O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Respublika bolalar ortopediya markazi	260	8	2	4	1		1			
13	"BOTANIKA SANATORIYSI" МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТИ	225	5	2	2	1					

14	"AFSAR COMPANY LTD" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	225	8	2	3	1	1		1		
15	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI PARRANDACHILIK"	194	12	2	6	1	1	1	1		
16	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "WHITE ELEPHANT"	124	10	2	6	2					
17	Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институти	187	6	1	3	1	1				
18	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN NARKOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI	201	4	1	1	1		1			
19	"FARHOD-MADAD-SHIFO" ХУСУСИЙ КОРХОНАСИ	158	6	3	3						
20	OOO"TEXTILE CHEMICAL SOLUTION"	150	7	2	4		1				
21	Геномика ва биоинформатика маркази	150	6	2	2	1		1			
22	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "NOVA PLUMBING SOLUTIONS"	117	6	1	2	1	2				
23	Қибрай тумани 1-умумтаълим мактаби	134	1	1	0						
24	Қибрай тумани газ таъминоти ҳудудий филиали	85	4	1	2	1					
25	Қибрай тумани 16-умумтаълим мактаби	101	1	1	0						

26	"KARVON" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	79	5	1	2	1	1				
27	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGINING 2-SON TOSHKENT AKADEMIK LITSEYI	75	2	1	1						
28	Қибрай тумани 30-умумтаълим мактаби	91	1		1						
29	Қибрай тумани 2-умумтаълим мактаби	79	1		1						
30	Қибрай тумани 39-умумтаълим мактаби	82	1		1						
31	Тошкент давлат аграр университети академик лицейи	81	2	1	1						
32	2-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	76	1		1						
33	Қибрай тумани 32-умумтаълим мактаби	82	1		1						
34	Қибрай тумани 28-умумтаълим мактаби	82	1		1						
35	ҚИБРАЙ ТЭТК	70	4	2	2						
36	Қибрай тумани 26-умумтаълим мактаби	62	1		1						
37	Қибрай тумани 6-умумтаълим мактаби	73	1		1						
38	Ўсимликшунослик илмий-тадқиқот институти	67	4	1	3						
39	Қибрай тумани 33-умумтаълим мактаби	50	1		1						
40	Қибрай тумани 5-умумтаълим мактаби	65	1	0	1						

41	ASTRAHAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETINING TOSHKENT VILOYATIDAGI FILIALI	68	2	1	1						
42	Қибрай туман халқ таълими бўлими	53	2	1	1						
43	Қибрай тумани 9-умумтаълим мактаби	52	1		1						
44	Қибрай тумани 27-умумтаълим мактаби	55	1		1						
45	26-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	62	1		1						
46	Қибрай тумани ирригация бўлими	60	3	1	2						
47	Халқ банки Қибрай филиали	58	3		3						
48	Қибрай тумани маданият бўлими	59	2	1	1						
49	Қибрай тумани 4-умумтаълим мактаби	55	1		1						
50	Қибрай тумани 47-умумтаълим мактаби	61	1		1						
51	"Invest Finance Bank" АТБ Тошкент вилоят филиали	47	3		3						
52	"Ўзсаноатқурилишбанк" АТБ Қибрай филиали	59	3		3						
53	Қибрай тумани 17-умумтаълим мактаби	54	1		1						
54	Қибрай тумани 7-умумтаълим мактаби	35	1		1						
55	Қибрай тумани 13-умумтаълим мактаби	54	1		1						
56	Қибрай тумани 40-умумтаълим мактаби	62	1		1						
57	Қибрай тумани 23-умумтаълим мактаби	54	1		1						

58	"Савдогар" АТБ Қибрай филиали	49	3		3						
59	Қибрай тумани 25-умумтаълим мактаби	46	1		1						
60	Қибрай тумани 3-умумтаълим мактаби	54	1		1						
61	Қибрай тумани 34-мактабгача таълим ташкилоти	42	1		1						
62	Чорвачилик ва паррандачилик илмий-тадкикот институти	49	3	1	2						
63	Қибрай тумани 21-умумтаълим мактаби	42	1		1						
64	Қибрай тумани 34-умумтаълим мактаби	39	1		1						
65	Қибрай тумани 10-умумтаълим мактаби	49	1		1						
66	Қибрай тумани 24-умумтаълим мактаби	46	1		1						
67	Қибрай тумани 20-мактабгача таълим ташкилоти	47	1		1						
68	28-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	45	1		1						
69	Қибрай тумани 45-умумтаълим мактаби	40	1		1						
70	Қибрай тумани 29-умумтаълим мактаби	43	1		1						
71	Қибрай тумани 37-умумтаълим мактаби	42	1		1						
72	Қибрай тумани 48-умумтаълим мактаби	40	1		1						
73	Қибрай тумани 42-умумтаълим мактаби	35	1		1						
74	Қибрай тумани 31-умумтаълим мактаби	41	1		1						
75	Қибрай тумани 11-умумтаълим мактаби	38	1		1						

76	Қибрай тумани 22-умумтаълим мактаби	45	1		1						
77	Қибрай тумани 8-умумтаълим мактаби	29	1		1						
78	Қибрай тумани 41-умумтаълим мактаби	39	1		1						
79	Қибрай тумани 15-умумтаълим мактаби	34	1		1						
80	Қибрай тумани 12-умумтаълим мактаби	33	1		1						
81	Қибрай тумани 35-умумтаълим мактаби	38	1		1						
82	Қибрай тумани 20-умумтаълим мактаби	39	1		1						
83	Қибрай тумани 43-умумтаълим мактаби	39	1		1						
84	Қибрай тумани 8-мактабгача таълим ташкилоти	34	1		1						
85	ASTRAHAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETINING TOSHKENT VILOYATIDAGI FILIALI		2	1	1						
86	Qibray tuman suv taminot mchj	195	4	1	1	1			1		
87	49-мактаб	34	1		1						
88	14 мактаб	58	1		1						
	ЖАМИ	16581	349	71	204	33	13	10	18	0	0